



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

# BOSHLANG'ICH TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

## XALQARO ILMIIY-AMALIY ANJUMANI

## MATERIALLARI



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ  
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ  
ЭТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ  
ОМИЛЛАРИ**

**ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021 йил, 1 -2 апрель**

**БУХОРО - 2021**

*Muammolarni hal qilish.* O'yinda ko'riladigan eng keng tarqalgan narsa - bu "qiyinchilik". Ushbu vazifalar o'yinchiga muammolarni hal qilish tajribasini taqdim etadi. Bitta qiyinchilikni yengib chiqqanda, o'yin boshqa bir qiyinchilik tug'diradi, bu esa o'yinchini maqsadga erishish uchun o'ylab, qayta o'ylashga undashi mumkin.

*Doimiy yodlash.* O'yinlar o'yinchini jalb qiladi va uni avvalgi qadamlarini eslab qolish va qayta yodlashga majbur qiladi. Krossvordlarni yoki boylik g'ildiragini yechish kabi harakatlar.

Amalga asoslangan kompetentsiyalar. Ko'pgina o'yinlar yuqori darajadagi g'alaba qozonish yoki boshqa topshiriq yoki obyektini ochish uchun mahorat talab qiladi. Shu sababli, o'yinchi o'yinda ko'proq imkoniyatlar yoki afzalliklarga ega bo'lish uchun yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun barcha sa'y-harakatlarni qilishga intiladi.

*Jamoa bilan ishlash.* O'yinchi ko'p o'yinchi o'yinini o'ynaganda, unga boshqa mahoratga ega bo'lgan boshqa bolalar bilan o'ynash foydali bo'ladi. Shuningdek, ushbu futbolchilar jamoaning manfaati uchun individual mahoratlarini birlashtirishi yoki baham ko'rishi mumkin bo'lgan jamoaviy ishlarni rivojlantiradi.

*Bilimlarni uzatish.* O'yinchi o'yinda ishtirok etganda, u o'yinni qanday boshqarishni va o'yinchi qaerga borishi kerakligini bilishi kerak. Ko'p o'yinchi o'yinlarida, kimdir o'z jamoasi bilan o'ynaganda, asosiy bilimlarni jamoaga berish kerak va ular qanday g'alaba qozonishlari kerak va qaysi bosqichda.

Umumiy mavqega asoslanib va yuqorida aytib o'tilgan va keltirilgan barcha faktlarning jamiga asoslanib xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi kunda raqamli o'yinlardan foydalanish orqali ta'lim usuli hali mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, uning mavjud bo'lishining katta imkoniyatlariga ega. Ushbu o'qitish usuli o'quvchilar uchun eng yuqori "samaradorlikka" ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Спиридонов Н.Я. Развитие цифровых игр для обучения // Наука и современность. 2015. С. 282-283.
2. Нигматова М.М. Умарова Г.У. Влияние информационного пространства на развитие познавательных творческих способностей дошкольников Academy 63 (№ 12), 2020/1. 67-70
3. Мирзаева, Дилфуза Шавкатовна. "Методы использования дидактико-игровых образовательных педагогических технологий в начальных классах." Academy 3 (54) (2020).
4. Мирзаева, Дилфуза Шавкатовна, and Дилсора Хаёт Кызы Рахматова. "МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ РЕЧИ У ДЕТЕЙ." Academy 6 (57) (2020).
5. Nigmatova Mavjuda Mahmudovna. Improving the preschool education system from the perspective of the age values of children. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Vol 10, Issue 1, January, 2021. Pp.182-185.
6. Nigmatova Mavjuda Mahmudovna. (2021). Reasons for Personal Change of Modern Preschool Children. Middle European Scientific Bulletin, 10(1). <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.10.359>

## **TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI**

*M. J. Yarashov, BuxDU o'qituvchisi*

*X. I. Hamdamova, BuxDU talabasi*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada ta'lim tizimini isloh qilishdagi jihatlar, xususan, raqamli texnologiyalar orqali samarali daralar tashkil qilish haqida so'z yuritilgan. O'quvchilar qiziqishini

orttirish hamda dars jarayonidagi faolligini oshirishda ushbu texnologiyalar o'rni beqiyosligi fikrlar davomida asoslangan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiya, ta'lim, bilim, integratsiya, muammoli ta'lim, zamonaviy ta'lim, interfaol, innovatsion.

**Аннотация.** В этой статье аспекты в реформе системы образования обсуждаются об организации эффективных уроков с помощью цифровых технологий. Разрушение этой технологии в увеличении студентов и активности в учебнике основана во время просмотра.

**Ключевые слова:** цифровая технология, образование, знания, интеграция, проблема образования, современное образование, интерактивные, инновации.

**Annotation.** In this article, the aspects in the reform of the education system are discussed about the organization of effective lessons through digital technologies. The incurvation of this technology in increasing students and activity in the textbook is based during views.

**Key words:** digital technology, education, knowledge, integration, problem education, modern education, interactive, innovation.

Axborotlashuv asrida davlatning innovatsion imkoniyatlarini shakllantirish jarayonida asosiy vazifa o'qituvchilar zimmasiga tushmoqda. Bunday muhim vazifani zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, o'z ustida doimiy ishlaydigan, bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtiruvchi, ishiga kreativ yondashuvchi o'qituvchigina hal eta oladi.

“Ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish zarur”<sup>36</sup>.

Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda ta'lim ham bir joyida turib qolmaydi. Hozirda davr talabi bilan ta'limning an'anaviy shakllari: suhbat, yodlash, turli hikoyalar o'rniga ta'limning noan'anaviy shakllari: integratsiyalashgan darslar, kuzatuv darslari, muammoli vaziyatlarni qo'yish kabilar kirib keldi. Ta'limning shunday shakllari orqali tashkil etilgan darslar o'quvchilarga yoqadi, ularda qiziqish uyg'otadi, ularga ko'plab yangiliklar beradi.

Zamonaviy ta'lim o'quvchi oldiga: bilimlarni erkin egallash, turli vaziyatlarda turli insonlar bilan munosabatda bo'lishni bilish, shu bilan birga o'z oldiga o'zini erkin, ishonchli his qilish kabi maqsadlarni qo'yadi. Shunday ekan ta'limning kommunikativ texnologiyasi ayni jarayonda innovatsion hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonlari o'z-o'zidan insonni rivojlantirmasdan, faoliyatli shaklga ega bo'lganida rivojlantira oladi. O'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishi uchun uning faoliyatini to'g'ri tashkil etish zarur. O'quv materialini sust idrok etish jarayonida rivojlanish sodir bo'lmaydi. Masalan: bola kitobni qanchalik ko'p varaqlamasin, o'zi raqamlarni eslab qolmasa, ulardan misol tuzishni o'rgana olmaydi, unda hech qanday misol yechish ko'nikmasi shakllanmaydi. O'quvchining o'z harakatlari kelajakda uning qobiliyati shakllanishining asosi bo'ladi.

Shunday ekan ta'limning vazifasi o'quvchilarni harakatlarga undovchi vaziyatlarni tashkil etishdan iborat. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchilar har bir o'quvchi turli vaziyatlarda topshiriqlarni to'g'ri yecha olishda individual vositalari va usullarini

---

<sup>36</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida”gi. 2017-yil 20-aprel, PQ-2909-son qarori.

shakllantirishga yordam beruvchi maxsus o'quv sharoitlarini yaratishlari zarur. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining oldiga qo'ygan natijalarga erishish texnologiyasining muhim masalalaridan biri sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatlari tarqoq bo'lib, ular ko'p holatda diqqat-e'tiborlarini bir holatdan ikkinchisiga qaratishlari qiyin. Ammo o'quvchining o'ziga doskada har qanday obyekt, elektron shakllar, yozuvlarni bajarish, rangi, kattaligi, shaklini o'zgartirish imkoniyati berilganda diqqati kuchayadi. Masalan: matematika darsida kompyuter vositalari, proyektor, elektron doskadan foydalanilishi bilan bolalarning darsga qiziqishlari ortadi hamda ta'lim jarayonining faolligi oshadi. Ma'lumot hajmining ko'pligi o'quvchilarga og'irlik qilmaydi. Zero, jarayon o'yin tarzida faol o'qishga imkon beradi. Elektron doska - boshlang'ich sinf matematika ta'limi jarayonini ko'rgazmali, rang-barang, qiziqarli qiluvchi samarali vosita. Ta'lim jarayonini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar juda muhim hisoblanadi.

Axborot kommunikatsion qurilmalar bilan jihozlangan o'quv xonasida o'quvchilar va o'qituvchi uchun ta'lim jarayonini tashkil etish hamda olib elektron qiziqarli va samarali bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar - foydalanuvchi manfaatlari uchun axborotlarni yig'ish, tahrirlash, saqlash, tarqatish va foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar to'plamidan iborat.

Olimlarning ta'kidlashicha ta'lim sohasida qo'llaniladigan raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi masalalarni amalga oshirishni o'z maqsadi qilib qo'yishi kerak:

- o'quvchilar fikrlashlarining tizimlilikini ta'minlash va rivojlantirish;
- bilim olish, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda mustahkamlashda o'quvchining idrok etish faoliyati barcha turlarini qo'llab-quvvatlash;
- ta'lim jarayoni yaxlitligini saqlab qolgan holda o'quv jarayonini individuallashtirish tamoyilini amalga oshirish.

Raqamli texnologiyalarni ta'lim vositalarining bir qator ko'rsatkichlari bo'yicha turlarga ajratish mumkin:

1. Pedagogik masalalari bo'yicha:

a) tayanch tayyorgarlikni ta'minlovchi vositalar: elektron darsliklar, ta'lim tizimlari, bilimlarini nazorat qilish tizimlari;

b) amaliy tayyorgarlik vositalari: masalalar to'plamlari, raqamli texnologiyalar, virtual konstruktorlar;

d) yordamchi vositalar: adabiyotlar, rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlari, multimediyali video darslar;

2. Ta'lim jarayonini tashkil qilish bo'yicha:

a) axborot-ta'lim resurslari;

b) interfaol;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishga va ijobiy motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi, chunki o'quvchilarning individual ta'lim imkoniyatlarini va ehtiyojlarini maksimal hisobga olish, o'quv mashg'ulotlari mazmuni, shakllarini tanlash keng imkoniyatlari, o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini ochib berish, o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishlariga yordam beradi. Raqamli

texnologiyalar imkoniyatlaridan raqamli o'quv resurslarini, individual testlar masofaviy darslarni tashkil etishda foydalanilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi. 2017-yil 20-aprel, PQ-2909-son qarori.
2. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik). –Toshkent: "Turon-Iqbol", 2016-yil. -426 b.
3. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (OO'Y uchun). –Toshkent: "O'qituvchi", 2004-yil.
4. Bikbayeva N.U. va boshqalar. Boshlang'ich sinf matematika o'qitish metodikasi. -Toshkent: "O'qituvchi", 1996.
5. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: "Fan va texnologiya", 2008.
6. www. ziyonet. uz
7. www.edu.uz

## BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TADBIQ ETISH METODIKASI

*M. J. Yarashov, BuxDU o'qituvchisi*  
*F. B. Barotova, BuxDU talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, bu jarayondagi samarali vositalar haqida so'z yuritilgan. Undan tashqari ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning turli ko'rinishlarini joriy etish, hamda bu texnologiyalarni qo'llash jarayonidagi qulayliklar aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiya, onlayn, ta'lim, jarayon, matn, animatsiya, ta'lim vositalari, ta'lim jarayoni, axborot, taqdimot.

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются изменения в системе образования, эффективные средства в этом процессе. Кроме того, образовательный процесс вносит различные формы цифровых технологий, а также удобства в применении этих технологий.

**Ключевые слова:** цифровая технология, онлайн, образовательный, процесс, текст, анимация, образовательный процесс, презентация.

**Annotation.** This article discusses changes in the education system, effective means in this process. In addition, the educational process introduces various forms of digital technology, as well as the conveniences in the application of these technologies.

**Key words:** digital technology, online, educational, process, text, animation, educational process, presentation.

Ta'lim jarayoni belgilangan maqsadga erishish va o'quvchilar shaxsining individual sifatlarini o'zgartirishga olib borishga qaratilgan o'quvchi va o'qituvchilarning o'zaro munosabatlari majmuyi hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida yaxshi natijaga erishish uchun yuqoridagi elementlarning barchasi muhim o'rin tutadi. Bulardan biri bu ta'lim vositalaridir. Yosh avlodga ta'lim berishda ta'lim vositalarining o'rni beqiyos. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalarni ta'limning asosiy vositasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki texnika rivojlangan bu davrda ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning

## Мундарижа

<i>Хамидов О.Х.</i> Рақамли технологияларни таълим жараёнига татбиқ этишининг устувор вазифалари	<b>3</b>
<i>Қаҳҳоров О.С.</i> Рақамли иқтисодиёт тараққиёт омили сифатида	<b>6</b>
<i>Тўхсанов Қ.Р.</i> Таълим беришда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти	<b>7</b>
<b>I ШЎЪБА</b> <b>БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ</b> <b>ИМКОНИАТЛАРИ</b>	
<i>Адизов Б.</i> Замонавий таълимда рақамли технологиялардан фойдаланиш истиқболлари	<b>11</b>
<i>Олимов Ш. Ш.</i> Бошланғич таълимни табақалаштиришнинг муҳим омиллари	<b>16</b>
<i>Ҳамроев А.Р.</i> Масофавий таълим соҳасида рақамли технологиялардан фойдаланиш имкониятлари	<b>21</b>
<i>Чудакова Вера Петровна.</i> Перспективность и особенности реализации «Технологии формирования компетентностей конкурентоспособности личности педагогов в условиях инновационной деятельности» с применением цифровых технологий	<b>24</b>
<i>Чемезов Сергей Александрович, Сахновская Елена Геннадьевна, Алмазова Юлдуз Исмаевна.</i> Цифровые ресурсы для педагогов начальной школы	<b>30</b>
<i>Djumatyev Matanazar.</i> Boshlang'ich sinf matematika darslarida milliy o'quv dasturini joriy etish istiqbollari	<b>34</b>
<i>Muhittin Gümüş.</i> Dilpsikolojisi çerçevesinde anadili (türkçe) öğretiminin kişilik oluşumuna etkisi	<b>38</b>
<i>Mustafa Said ARSLAN.</i> Özbek türkçesi konuşanlara türkiye türkçesi öğretiminde yalancı eş değer sorunu	<b>48</b>
<i>Döne ARSLAN.</i> Türkiye türkçesi açısından özbek türkçesine bir bakış	<b>57</b>
<i>Умуров З. Л.</i> Таълимни рақамлаштириш шароитида педагогларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш педагогикаси фани асослари	<b>61</b>
<i>Masharipova U.A.</i> Boshlang'ich ta'limga raqamli ta'lim texnologiyalarni joriy etish davr talabi	<b>65</b>
<i>Sayfullayev G'M., Alimova L.X., Temirova I.S.</i> 4-sinfda Markaziy Osiyolik allomalarning tabiat haqidagi fikrlaridan foydalanib raqamli texnologiyalar asosida dars o'tish	<b>68</b>
<i>Умуров З. Л.</i> Таълимни рақамлаштириш шароитида ўқув-билув муаммоларини таълим жараёнига татбиқ қилишнинг шарт-шароитлари	<b>70</b>
<i>Sayfullayev G'M., Yodgorova G.F., Yodgorov F.O'.</i> Boshlang'ich sinf "atrofimizdagi olam" darslarida o'qitishning raqamli pedagogik texnologiyalaridan foydalanish	<b>74</b>
<i>Sayfullayev G'M., Alimova L.X., Hamroyeva D.O.</i> Tabiatshunoslikni oqitishda foydalaniladigan raqamli texnologiyalar	<b>76</b>
<i>Nigmatova M.M.</i> Raqamli o'yinlar bolalarni oqitish usuli sifatida	<b>80</b>
<i>Yarashov M. J., Hamdamova X. I.</i> Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni	<b>82</b>
<i>Yarashov M. J., Barotova F. B.</i> Boshlang'ich ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning tadbiiq etish metodikasi	<b>85</b>
<i>Yarashov M.J.</i> Boshlang'ich sinf matematika ta'limni raqamli texnologiyalar orqali ijodiy tashkil etish jarayoni	<b>88</b>
<b>II ШЎЪБА</b> <b>БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР БИЛИМИНИ БАҲОЛАШНИНГ ХАЛҚАРО</b> <b>ТИЗИМИ</b>	
<i>Юлдашева М. М. Бафаева Дилдора.</i> Обучение учащихся анализу художественных произведений в начальных классах на основе заданий PIRLS	<b>91</b>
<i>Jurayev B.T., Qatarova Z.</i> Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash tamoyillari	<b>96</b>
<i>Doniyorova N. M., Hamroyev A. R.</i> Husnixat darslarida xalqaro tadqiqot baholash tizimi-pirls matnlarini qo'llashning ahamiyati	<b>98</b>
<i>Мустафоев Б.</i> Бошланғич синф ўқувчиларида мусиқий саводхонликни шакллантириш	<b>101</b>